NAVOIY VILOYATI BOSMA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O'RNI

Norov Shuxrat Suvonovich
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
Toshkent filiali dekani, "Huquqiy va gumanitar fanlar" kafedrasi tarix fanlari doktori (DSc), v.b.professor
norov1976sh@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4617-706X

Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
mirsaidabduraxmonov854@gmail.com
ORCID: 0009-0009-6979-9985

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Navoiy viloyati bosma ommaviy axborot vositalarining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'rni tarixiy manbalar asosida tadqiq etiladi. "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalarining 1991-2025-yillarda chop etilgan ayrim sonlari misolida vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ta'lim, ma'rifat, kasb-hunarga yo'naltirish, jismoniy tarbiya va yoshlarning ijtimoiy faolligi masalalarining yoritilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hududiy matbuotning tarixiy xotirani saqlash, ijtimoiy qarashlarni shakllantirish va yosh avlodni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan faoliyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Navoiy viloyati, bosma matbuot, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlar, tarixiy xotira.*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических источников исследуется роль печатных средств массовой информации Навоийской области в духовно-нравственном воспитании молодёжи. На примере отдельных номеров газет «Дустлик байроки» и «Знамя дружбы», опубликованных в 1991-2025 годах, анализируются особенности освещения вопросов патриотизма, национальных ценностей, образования, просвещения, профессиональной ориентации, физического воспитания и общественной активности молодёжи. Кроме того, рассматривается деятельность региональной прессы, направленная на сохранение исторической памяти,*

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

формирование общественных взглядов и воспитание молодого поколения в духе духовно-нравственных ценностей.

***Ключевые слова**: Навоийская область, печатная пресса, воспитание молодёжи, духовные ценности, историческая память.*

***Abstract.** This article examines the role of print media in the Navoi region in the spiritual and moral education of young people based on historical sources. Drawing on selected issues of the newspapers Do‘stlik bayrog‘i and Znamya druzhby published between 1991 and 2025, the study analyzes the coverage of patriotism, national values, education, enlightenment, vocational guidance, physical education, and youth participation in public life. Furthermore, the article explores the role of regional print media in preserving historical memory, shaping public attitudes, and educating the younger generation in the spirit of spiritual and moral values.*

***Keywords:** Navoi region, print media, youth education, spiritual values, historical memory.*

KIRISH

Jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti, avvalo, yosh avlodning intellektual darajasi, axloqiy fazilatlari, tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog‘liq. Har bir tarixiy davrda yoshlar tarbiyasi davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ushbu masala yangi ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb eta boshladi. Yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalari, vatanparvarlik, tarixiy merosga hurmat va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalashga qaratilgan faoliyatda ommaviy axborot vositalarining o‘rni yanada ortdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 25-dekabrda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqida: “Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur”, deb ta’kidlagan [1]. Ushbu fikr yoshlar tarbiyasi davlat boshqaruvi organlari bilangina cheklanmasdan, ta’lim muassasalari, mahalla, oila va keng jamoatchilikning hamkorligini talab etishini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Tarixiy jarayonlarni o‘rganishda bosma ommaviy axborot vositalari qimmatli ahamiyatga ega. Chunki davriy matbuot sahifalarida muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy muhiti, madaniy hayoti, ma’naviy qadriyatlari hamda jamoatchilik e’tiborida bo‘lgan muammolar aks etadi. Ayniqsa, hududiy gazetalar mahalliy jamiyat hayotidagi voqealarni muntazam yoritib borishi bilan respublika miqyosidagi nashrlardan farqlanadi. Navoiy viloyatida chop etilgan “Do‘stlik bayrog‘i” va

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

“Знамя дружбы” gazetalari hudud tarixini o‘rganishda muhim manbalar hisoblanadi. Mazkur nashrlarda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, sport va madaniyatdagi yutuqlari, milliy qadriyatlarga munosabati hamda ijtimoiy hayotdagi ishtiroki bilan bog‘liq materiallar e’lon qilingan.

Navoiy viloyati bosma matbuotining yoshlar tarbiyasidagi faoliyatini tarixiy jihatdan o‘rganishda mustaqillikning dastlabki yillari alohida ahamiyatga ega. Mazkur davrda jamiyatda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, davlat mustaqilligining mazmun-mohiyatini tushuntirish va yangi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlari kechdi. 1990-yillarda davriy matbuot sahifalarida mustaqillikning tarixiy ahamiyati, milliy davlatchilik, ona tiliga hurmat, ajdodlar merosi va vatanparvarlik masalalarining yoritilishi mazkur jarayonlarning muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘ldi. Jumladan, “Знамя дружбы” gazetasining 1993-yil 31-avgust sonida “По пути независимости – к светлому будущему” nomli maqola e’lon qilingan [2]. Unda mustaqillik davrining dastlabki yillariga xos bo‘lgan kelajakka ishonch, taraqqiyotga intilish va milliy davlatchilikni mustahkamlash g‘oyalari mujassamlashgan.

Navoiy viloyati bosma matbuotida milliy qadriyatlar mavzusining yoritilishi yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq. Zero, yosh avlodning o‘z tarixini bilishi, ajdodlar merosini qadrlashi, milliy urf-odat va an’analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi ma’naviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Hududning Alisher Navoiy nomi bilan atalishi ham ma’naviy-ma’rifiy mavzularni tarixiy meros bilan bog‘lab yoritish uchun muhim madaniy asos yaratadi. Yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasida ta’lim va ma’rifat alohida o‘rin tutadi. Bilimli, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan avlodni tarbiyalashda maktab, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda bosma matbuot ta’lim sohasidagi yangiliklarni keng jamoatchilikka etkazish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va mavjud muammolarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Yoshlar tarbiyasi masalasi davlat siyosati, jamoatchilik faoliyati va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy va tashkiliy asoslari takomillashib bordi. Bu jarayon hududiy ommaviy axborot vositalari faoliyatida ham o‘z ifodasini topdi. Yoshlarga oid davlat siyosatining gazetalarda yoritilishi yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirish bilan bog‘liq ma’rifiy vazifalarni bajarishi mumkin. Bunday materiallar orqali davlat va jamiyat tomonidan yoshlar oldiga qo‘yilgan vazifalar, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar hamda yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, ijodiy uchrashuvlar va jamoatchilik tashabbuslari bilan bir qatorda, ularni turli salbiy illatlardan asrash, sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Знамя дружбы” gazetasida e’lon qilingan **“Профилактика наркомании”** nomli maqolada yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ta’lim muassasalarida olib borayotgan tushuntirish ishlari hamda oilaviy tarbiyaning ahamiyati yoritilgan [3]. Bu esa hududiy bosma matbuotning yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish, zararli odatlarning oqibatlari haqida ogohlantirish va sog‘lom ijtimoiy muhitni targ‘ib qilishdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Mazkur material yoshlarning jamoaviy faoliyati va madaniy muloqotiga oid tarixiy ma’lumotlarni o‘rganishda ahamiyatlidir. Bunday tadbirlarning hududiy matbuotda aks ettirilishi yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini keng jamoatchilikka tanishtirish imkonini bergan. Shu jihatdan Navoiy viloyati bosma matbuoti faqat axborot etkazuvchi vosita emas, balki yoshlarning ijtimoiy faolligi va ma’naviy kamolotiga oid jarayonlarni hujjatlashtirib borgan tarixiy manba sifatida ham baholanishi mumkin.

XXI asrning uchinchi o‘n yilligida yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yanada keng mazmun kasb etdi. Xususan, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy hunarmandchilik an’analarini davom ettirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish muhim yo‘nalishlarga aylandi. “Знамя дружбы” gazetasining 2024-yil 17-oktabr sonida “Названы лучшие авторы социальных инициатив” maqolasi e’lon qilingan [4]. Unda Navoiy shahridagi 6-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi Baxriniso Berdiyevaning faoliyati yoritilib, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, ularga milliy hunarmandchilikni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Qayd etish kerakki, yoshlarni milliy hunarmandchilikka o‘rgatish orqali ularda mehnatsevarlik, sabr-toqat, mas’uliyat va milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu sababli bunday tashabbuslarning mahalliy matbuotda yoritilishi tarixiy-madaniy meros va zamonaviy tarbiya jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Hududiy bosma matbuotda yoshlarning jismoniy tarbiyasi va sportdagi muvaffaqiyatlari ham yoritib borilgan. Xususan, “Навоийские гимнасты покоряют помосты” sarlavhali materialda Navoiy shahridagi “Yoshlar” sport majmuasida o‘tkazilgan badiiy gimnastika musobaqasida 70 nafar qiz ishtirok etganligi aytilib, ushbu ma’lumot viloyatda yosh qizlarning sportga jalb etilishi va jismoniy tarbiya sohasidagi faoliyatini o‘rganishda aniq tarixiy dalil bo‘lib xizmat

qiladi [5]. Sportga oid materiallar yoshlarning yutuqlarini keng jamoatchilikka tanishtirish bilan birga, sog‘lom turmush tarzi, intizom, qat’iyat va maqsad sari intilish kabi fazilatlarni targ‘ib qilish imkoniyatiga ega.

Navoiy viloyati bosma ommaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini tadqiq etishda manbashunoslik yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Chunki gazeta materiallari muayyan tarixiy davrning ijtimoiy muhitini, davlat siyosati va jamoatchilik qarashlarini aks ettiradi. “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalarining turli yillardagi sonlarini qiyoslash yoshlar tarbiyasiga oid mavzularning mazmunan o‘zgarib borganini kuzatish imkonini beradi. Xususan, tanlab o‘rganilgan materiallarda 1990-yillarda mustaqillik va vatanparvarlik, 2000-yillarda ta’lim va ma’rifat, 2010-yillarda yoshlar siyosati va ijodiy faollik, 2020-yillarda esa kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy tashabbuskorlik hamda sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liq mavzular ko‘zga tashlanadi.

XULOSA

Navoiy viloyati bosma ommaviy axborot vositalarining yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rnini tarixiy jihatdan o‘rganish natijasida bir qator xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalarida yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar turli tarixiy davrlarda yoritilgan. Xususan, mustaqillik, milliy qadriyatlar, ta’lim, ijodkorlik, kasbiy tayyorgarlik, sport va ijtimoiy faollikka oid materiallar mahalliy matbuotning muhim mavzularidan bo‘lgan. Ikkinchidan, gazetalarda yoshlarning ta’lim va madaniyat sohasidagi faoliyati, ijodiy yutuqlari hamda ijtimoiy tashabbuslari aks ettirilishi hududiy matbuotning ma’rifiy va axborot berish vazifalarini namoyon etadi. Uchinchidan, ikki tildagi nashrlarning faoliyati yoshlar tarbiyasiga oid axborotlarni turli til guruhlariga mansub o‘quvchilarga etkazish imkoniyatini yaratgan. To‘rtinchidan, bosma matbuot materiallari yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni o‘rganishda muhim birlamchi manba hisoblanadi. Ular orqali muayyan davrning ijtimoiy qarashlari, ma’naviy qadriyatlari va yoshlar siyosatiga oid tashabbuslarini tadqiq etish mumkin. Shunday qilib, Navoiy viloyati bosma ommaviy axborot vositalari tarixini yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganish hududning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Мирзиёев Ш. М.** Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқи. — 2020. — 25 декабрь. — URL: https://president.uz/oz/lists/view/4042.

2. **Айдарқулов А.** По пути независимости — к светлому будущему // Знамя дружбы. — 1993. — 31 августа.

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

3. **Асланов М.** Профилактика наркомании // Знамя дружбы. — 2012. — 29 мая.

4. **Гулямова Д.** Названы лучшие авторы социальных инициатив // Знамя дружбы. — 2024. — 17 октября.

5. **Пресс-служба специализированной спортивной школы по гимнастическим видам спорта.** Навоийские гимнасты покоряют помосты // Знамя дружбы. — 2024. — 17 октября.

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING